



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



RESPUBLIKA
TA'LIM MARKAZI

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING MILLIY O'QUV DASTURI

TARBIYA



unicef 



LOYIHA



TUSHUNTIRISH XATI

Tarbiya fani dasturi o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga chuqur singdirish, ularda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish orqali mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik kabi fazilatlarini tarbiyalashni amalga oshirish nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi iyuldagi 422-sonli qarori asosida o'qitiladi.

"Tarbiya" fanini umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitishdan **maqsad** yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, yangilanayotgan O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni yuksak axloq va madaniyatni o'zida mujassam etgan raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashdan iborat.

"Tarbiya" fanining **vazifalari**:

O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
o'quvchilarni odobli, axloqli, vijdonli va mehr-shafqatli qilib voyaga yetishishlariga erishish;

bolani maqsad qo'ya olish va unga intilishga undash;
xalqning ko'p asrlik qadriyatlarga rioya qilib kamol toptirish;
milliy g'urur va iftixor, e'tiqod hislarini ularda shakllantirish;
moddiy va ma'naviy merosga hurmat tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat.

"Tarbiya" fani I sinfda 33 soat, II-IX sinflarda 34 soatdan o'qitiladi.

I-IX sinf "Tarbiya" fani dasturining mazmuni barcha o'quv fanlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dasturda berilgan har bir mavzuni chuqur o'rganish uchun o'qituvchi amaliy va ijodiy ishlarni tashkil etishga e'tiborni qaratishi lozim.

Mavzular xarakteriga ko'ra, ijodiy hikoyalar tuzib, bolalarni undagi qahramonlar odobiga munosabat bildirishga o'rgatish lozim. Shuningdek, mediamahsulotli vositalar hamda muammoli masalalardan foydalanishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5-9-sinflarda Nazorat ishlari amaliy mashg'ulotlar va takrorlash, yakuniy dars uchun ajratilgan soatlar hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Mazkur o'quv dasturiga pedagoglar tomonidan imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqqan holda 15 foizgacha o'zgartirishlar kiritish mumkin.



I SINIF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

orzularini aniqlay oladi;
mas'uliyatni anglaydi;
odob me'yorlariga rioya qiladi;
hamkorlik qila oladi.

I bob. MEN O'ZBEKISTON FARZANDIMAN

(13 soat)

Vatan ishonchi. Prezident sovg'asi haqida suhbat. Bolalar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida videofilm namoyishi. O'quvchilarning kelajak maqsadlarini shakllantirish.

Salomlashish odobi. Salomlashish odobning muhim belgisi. Salomlashish haqida turli vaziyatlar. To'g'ri salomlashish, kim birinchi salom beradi? Qayerda salom berish mumkin emas?

Mening orzuyim. Mening orzuyim va imkoniyatlarim. O'quvchilarning maqsadlarini amalga oshirishda oila tomonidan yaratib berilgan imkoniyatlar.

Bilim olish sirlari. Nima uchun bilimli bo'lish kerak? Ustozga hurmat. Kitob va o'quv qurollardan foydalanish qoidalari.

Maktabim – gulshanim. Mening maktabim, maktabdagi sharoitlar, "Maktabning egasi kim?" hikoya. Maktab mulki va uni asrash mas'uliyati.

Mening sevimli ertak qahramonlarim. Bilim olishni targ'ib qiluvchi ertaklar va ularning qahramonlari haqida suhbat. Rasmlar asosida ertakni yakunlash.

Har narsaning o'lchovi bor. Vaqtning uvoli. Kun tartibiga rioya etish intizomlilik belgisi. Isrof bo'lgan suv qadri. Gaz, elektr energiyasi, ichimlik suvi - milliy boylik. Bir kunlik harajat.

Mening mahallamda yashash yaxshi. Muammoli vaziyatlar asosida bolada mas'uliyat, majburiyat, vatanpavarlik tuyg'ularini shakllantirish. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", "Qo'shning tinch, sen tinch".

Notanish kishi kim? Notanish kishilar bilan muloqotga kirishish. Yaltiroq quticha kimniki? (Begonalar bilan gaplashish, ulardan sovg'a va turli narsalarni olishning xavfi haqida suhbat). Xavfli vaziyatlarda qaysi telefon raqamiga murojaat qilish lozim.

Xavfli vaziyatlarda harakat qilish. Turli xavfli vaziyatlar haqida ma'lumot berish asosida o'zini tutish qoidalarini o'zlashtirish.

«Zukko o'quvchi» o'yini.

II bob. GO'ZAL XULQ - INSON KO'RKI

(20 soat)

Sehrli so'zlar. Sehrli so'zlarning qudrati. Oila a'zolari va do'stlarga muomala qilish. Telefonda so'zlashish odobi.



Qalb oynasi. O'quvchi fikrini erkin ifodalashi. Qo'l harakatlari, yuz ifodasi (kulgi, kinoya va jahl), ovoz balandligi.

Telefondan foydalanish qoidalari. Telefon va kompyuterdan foydalanish odobi (oila a'zolari va do'stlarning telefonidan foydalanish qoidalari).

Tashqi ko'rinish odobi. Qaysi libos, oyoq kiyim qayerga kiyiladi? Taqinchoqlar qayerga va qachon taqiladi? Mening fikrim: «Agar taqinchoqlar (soat, zirak, uzuk, soch to'g'nog'ichi)dan foydalanilsa...», necha yoshdan taqish mumkin?

Yaxshi va yomon odatlar. Nima yaxshi-yu, nima yomon? Xalq ertaklari asosida suhbat. Qaysi odatlar yaxshi? Yomon odatlardan qanday qutilish mumkin?

Soy bo'yida. Suv havzalaridagi xavfsizlik qoidalari haqida. Suv qadri va uni toza tutish odobi.

Sog' tanda sog'lom aql. Salomatlikni saqlash. Qo'l yuvish qoidalari. Sog'lik uchun zararli odatlar.

Dasturxon atrofida. Dasturxon bezash haqida rasmi topshiriqlar: sochiq, sanchqi, qoshiq, pichoqdan to'g'ri foydalanish.

Dasturxon atrofida o'tirish odoblari. Dasturxon atrofida o'tirish qoidalari va tartiblari.

Jamoat joylarida o'zini tutish. Jamoat transportida, do'konlarda, kasalxona va madaniyat maskanlarida, ko'chalarda kim-kimga yo'l beradi?

Yakunlovchi dars.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash	Nazorat ishi
1	Men O'zbekiston farzandiman	16	10	5	1	
2	Go'zal xulq – inson ko'rki	17	10	5	1	1
Jami		33	20	10	2	1



II SINIF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

- o'z oldiga maqsad qo'ya oladi;
- oila oldidagi o'zining mas'uliyatini anglaydi;
- muomala odobiga amal qiladi;
- o'z maqsadiga erishishda tirishqoqlikni namoyon qiladi, takliflarni ifodalay oladi;
- o'z xatti-harakatlarini baholay oladi;
- yaxshi odatlarga amal qiladi.

I bob. IMKONIYATLAR ESHIGI

(4 soat)

Olamni mahliyo aylagan diyor. Mening maqsadlarim. Menga berilayotgan imkoniyatlar, yaratilgan sharoitlardan foydalana olayapmanmi? Ajdodlarimiz o'z maqsadlariga qanday erishganlar?

Imkoniyatlar va ehtiyojlar. Imkoniyat va ehtiyoj tushunchalari. Ilmli bo'lmoq haqida.

Men qanday inson bo'lishim kerak? Maqsad sari intilish. Ota-onamning orzusi. O'quvchini o'z tengdoshlarining yutuqlariga havas qilish va ularga tenglashishga undash.

II bob. OILADAGI MUNOSABATLAR

(6 soat)

Qarisi bor uyning - parisi bor. Oila haqida. Oilada bobo va buvilar bilan munosabat odobi. Kattalarga hurmat va ehtirom ko'rsatish.

Maktabim – qadrdonim. Maktab jihozlari kimniki? Eng ulug' maskan. Maktabdagi har bir kitob va boshqa buyumlarni asrab-avaylash lozimligi.

Tengdoshlarim yutuqlari. Dunyo hamjamiyatida yutuqlarga erishgan o'quvchilar hayotidan namunalar.

Kim bo'lsam ekan? Kasb tanlash va bilim olish haqida. Bilim ol, hunar tanla.

III bob. TARTIB - INTIZOM HAMROHING BO'LSIN HAR ON

(9 soat)

Inson hayotida qoidalarning o'рни. Qoidalar nima uchun kerak? Qoidalar va ularga amal qilish. Qoidalarni kim yaratgan? Bizning hayotimizdagi qoidalar. Sog'lom bo'lish qoidalari.

Jamoat transportida. Yo'l harakati qoidalari qanday paydo bo'lgan. Piyoda - umring bo'lsin ziyoda.

Sog' tanda sog'lom aql. Salomatlik tuman boylik. Sog'liq qoidalari haqida.

Xavfsizliging o'z qo'lingda. Xavfsizlik, ogohlik, hushyor bo'lish. Xavfsizlik qoidalarini bilamizmi?



Yaxshi va yomon odatlar. Yaxshi va yomon odatlar haqida. Yomon odatlardan qutilish.

Yolg'onning umri qisqa. Rostgo'ylik, to'g'ri so'zlik inson ko'rki. Yolg'onning oqibati haqida.

Birovning haqqi. Birovning haqqi tushunchasi. Mavzuga mos hikoya. Birovning haqqiga xiyonat qilishning oqibati haqida.

Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on. Intizom vaqtga amal qilishdan boshlanadi. O'quv qurollari va o'ziga tegishli bo'lgan buyumlarini tartibli saqlash. Shaxsiy gigiena va kun tartibiga rioya qilish.

IV bob. HAMJIHATLIK – DAVLAT, AHILLIK – HIKMAT (14 soat)

Birlashgan o'zar. Hamkorlik (hamjihatlik, birdamlik, ahillik). Jamoada o'zini tutish. Mas'uliyat va majburiyat.

Hurmat qozonish. Hurmatga erishishning yo'llari. Muloqot qilish, eshitish, tinglash, fikr bildirish qoidalari. Suhbatdoshga samimiy munosabatda bo'lish, tabassum qilish.

Insonparvarlik. Mamlakatimizda yashaydigan turli millat va elatlar, ularning qadriyat, marosimlariga hurmat ko'rsatish odobi.

Uyimizga mehmon keldi. Mehmon kutish va mehmonda o'zini tutish odobi. "Tomga chiqmagan "quloqsiz" bola" hikoyasi haqida suhbat.

Mehmon-mehmon. Mehmon va mehmon odobi haqidagi hikoyalar asosida.

Do'stlik oliy fazilat. Do'stlashish odobi va qoidalari. "Uy vazifasini ko'chirtirmagan qiz" hikoyasi.

Sovg'a berish va sovg'a olish odobi. Tug'ilgan kunga borish. Kimga qanday sovg'a beriladi? Do'stlarga tabrik yo'llash.

Ziyorat odobi. Ziyorat qilish. Ziyorat qilishning tartib-qoidalari haqida.

Yozgi ta'til – bir yilga tatir. Vaqt qadri. Suv havzalaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalari.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash	Nazorat ishi
1	Imkoniyatlar eshigi	4	4			
2	Oiladagi munosabatlar	6	4	2		
4	Tartib-intizom hamrohing bo'lsin har on	12	8	3		1
5	Hamjihatlik – davlat, ahillik – hikmat	10	9		2	1
Jami		34	25	5	2	2



III SINIF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

maqsad va orzu-umidlarini amalga oshirishga harakat qiladi;
oila va jamoadoshlari oldidagi o'zining mas'uliyatini anglaydi;
kommunikativlik, ahillik, kechirimlilik, rahm-shafqatlilik kabi sifatlarga ega bo'ladi;
tashqi ko'rinish etiketiga amal qiladi va liboslarni tanlashda o'z fikrini bildiradi;
sabr-qanoat, shukronalik, qat'iy irodali bo'lishga intiladi.

I bob. ORZULAR MAQSADLARGA YETAKLAYDI (5 soat)

Munosib farzand. Men katta bo'lsam. O'qishdan maqsad nima bo'lishi kerak? Zamonaviy kasblar haqida. O'quvchilarning kelajakda kim bo'lishlari haqida suhbat.

Muvaffaqiyatlar – qat'iyat va mehnat natijasi. Muvaffaqiyatga qanday erishiladi? Maqsad va imkoniyatlar haqida. O'ylab topishga qodir bo'lsang, bajarishga ham imkon topa olasan.

Serquyosh hur o'lkam.

II bob. ILM VA ODOB INSON ZIYNATI (23 soat)

Eng buyuk sharaf. O'qish va o'rganishdek sharafli va yoqimli narsa yo'q. Bilmaslik ayb emas, o'rganishga intilmaslik aybdir.

Bilim olish odobi. Inson bilimi bilan qadrlanadi. Bilim olishda boshqalarning yordami va ularga yordam berish haqida hikoya. Bilim olishga oid qoidalar.

Kelajakda kim bo'lsam ekan? Kasblar haqida. Hunar-hunardan rizqing unar. Hunar haqida. Milliy hunarmandchilik. Hunarning foydasi.

Vaqting ketdi - baxting ketdi. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish. Mening qiziqishlarim.

Ehtiyotkorlik. Birinchi yordam ko'rsatish. Uy jihozlaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Kitob-bilim manbai. Mutoala odobi. Kitobning oilada va inson hayotidagi o'рни. Mutoalaning ahamiyati.

Elektron axborotlar. Kompyuterdagi kitoblarim. Elektron kitoblarni mutoala qilishni o'rgatish va ulardan unumli foydalanish.

Kiyinish madaniyati. Insonning tashqi ko'rinishi. Kundalik hayotda kiyiladigan kiyimlarga qo'yiladigan talablar. Tantanalar va boshqa tadbirlarda kiyiladigan kiyimlar. Amaliy mashg'ulot. O'quvchining kiyinish odobi.

Ozodalik – inson ko'rki. Ozodalik, yurish-turish, shaxsiy buyumlarni asrab-avaylash va tartibli saqlashni tarbiyalash.



Ozodalikni xonamizdan boshlaymiz. Xonani tartibga solish qoidalari.
Inson odobi bilan go'zal. Odob, tartib-intizom, andisha haqida.
Barcha uchun majburiy bo'lgan odob qoidalari.

Mehr-oqibat-insoniy fazilat. Insonlarga bo'lgan munosabatni tarbiyalash. Oqibatli aka-uka haqida hikoya.

Qari bilganni pari bilmas. Keksalarni ardoqlash – insoniy burch. Xalqimizga xos noyob qadriyat.

Qulog'iga quloqchin taqqan "quloqsiz" bola. Rasmlar asosida yo'lda harakatlanish qoidalariga amal qilmagan va uning salbiy oqibati haqidagi hikoya.

Mahalla va qo'ni-qo'shnichilik. Mahalla tushunchasi. Mahallaning jamiyatimizdagi o'rnini haqida. Girgitton buvining yapon nabirasi hikoyasi.

III bob. REJALI ISH - BEJOG'LIQ ISH (5 soat)

Tejamkorlik. Tejamkorlik nima? Nimalarni tejash kerak? Tejamkorlik va isrofgarchilik haqida hikoya.

Vaqt qanday tejaladi? Ninachi va chumoli haqida she'r. Har narsaning o'lchovi bor.

Takrorlash va umumlashtiruvchi dars

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash	Nazorat ishi
1	Orzular maqsadlarga yetaklaydi	5	3	1	1	
2	Ilm va odob inson ziynati	24	15	7	1	1
3	Rejali ish - bejog'liq ish	5	2	1	1	1
Jami		34	20	9	3	2



IV SINIF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

Vatan va vatanparvarlik haqidagi tushunchalari kengayadi;
hayotiy maqsadlari shakllanadi;
to'g'ri harakatlarni qo'llab - quvvatlaydi va amal qiladi;
jarayonlarga munosabat bildira oladi;
jamoada ishlay oladi;
hamkorlik qila oladi, sog'lom fikrga ega bo'ladi;
etika qoidalariga amal qiladi.

I bob. INSONIYATNING MA'NAVIY MEROSI (7 soat)

Vatan madhi. Olmos to'la hovli. Inson baxti o'z Vatanida. Vatan tushunchasining ahamiyati.

O'zbekiston ko'p millatli davlat. Ko'p millatli yurtda yashash baxti.

Millatlararo totuvlik. Qo'shniga yaxshilik qilish. Qadriyatlarga hurmat. Insoniylik fazilati.

Mard va jasur inson – Vatanning tayanchi. Mard va jasur insonlar haqida tushuncha. Mardlik haqida bobomning o'g'itlari.

Bobolarimizning bebaho merosi. Koinotni zabt etgan bobomiz. Ahmad al-Farg'oniyni muvaffaqiyat sirlari. Bobolarimizning jahon ilmi-fani qo'shgan hissasi.

Maktab eng ulug' dargoh. Maktabimiz ikkinchi uyimiz. Maktabda o'rnatilgan tartib-qoidalar haqida.

Kitob buyuk donishmand. Kitob ilm shamchirog'i. "Mening sevimli kitobim" mavzusida hikoya yozish. Kitob o'qishda amal qilish lozim bo'lgan qoidalar.

II bob. AXLOQ – INSON KO'RKI (20 soat)

Bilim – tengsiz xazina. Muvaffaqiyatga erishishda ilm olish va kitob o'qishning ahamiyati.

Vatan bayrog'ini baland tutaylik. Sportchi Shahram G'iyosovning Vatan bayrog'ini baland ko'tarish orzusi haqidagi hikoyasi.

Yaxshilik qilish hikmati. Yaxshilikning mukofoti haqida hikoya. To'g'ri yo'lni tanlash tanlovi.

Imkoniyat va matonat. Imkoniyat haqida tushuncha. Bizning imkoniyatlarimiz va ulardan to'g'ri foydalanishimiz haqida.

Rostgo'ylik. Yolg'onchilikning jazosi haqidagi "Sher va durroj" hikoyasi. Rostgo'ylikning bahosi.

Halollik – muvaffaqiyat kaliti. Halollik haqida hikoya. Halol bo'lishning ahamiyati. Halol va to'g'riso'z inson doim muvaffaqiyatga erishadi. Halollikning urug'i.



Tilga hurmat elga hurmat. Til va el haqidagi ibratli hikoya. Tilni hurmat qilish haqida.

Tejamkorlik. Xasis insonlar haqida hikoya. Tejamkorlikka oid burchlar.

Fazilatlar – inson ko'rki. O'qituvchining bir umrli sabog'i. Insonning dunyoqarashi uning ma'naviyatini belgilaydi.

Muvaffaqiyat – bir jamoaga aylanishda. Jamoa bo'lib ishlashning ahamiyati. Kuch – birlikda. Do'stlikning ahamiyati.

Barcha insonlar qonun oldida tengdirlar. Tenglik tushunchasi. Mening huquqlarim va majburiyatlarim. Mas'uliyat haqida.

Xavfli vaziyatlarda nima qilish kerak? Xavfli vaziyatlar vaqtida to'g'ri harakatlanish. Yong'in, zilzila vaqtida to'g'ri harakat qilish qoidalari.

III bob. OILA BAXT QO'RG'ONI (7 soat)

Baxt oiladan boshlanadi. Sinovdan o'tgan bolalar hikoyasi. Oilaviy qadriyatlar haqida.

Oilaviy kitobxonlik muvaffaqiyat poydevori. Kitob o'qishning muvaffaqiyat qozonishdagi o'rni. Kitob o'qish odobi, kutubxonada mutoala odoblari.

Ona – ulug' zot. Onaga hurmatning ahamiyati. Ona haqida hikoya.

Sog'lik – katta boylik. Sog'lom ovqatlanish qoidalariga amal qilish. Vaqtni to'g'ri taqsimlash. Kun davomida foydali mashg'ulotlar bilan band bo'lish.

Sog'lom hayot uchun zarur kun tartibi. Muvaffaqiyatli hayot uchun lozim bo'lgan tavsiyalar. Foydali mahsulotlar haqida.

Insonni xotirlash – milliy qadriyat. Inson xotirasi – muqaddas, inson qadri – ulug'. 9-may – Xotira va qadrlash kuni. Sobir Rahimovning jasorati.

Yakuniy dars. Men o'n bir yoshdaman.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash	Nazorat ishi
1	Insoniyatning ma'naviy merosi	8	6	1	1	
2	Axloq – inson ko'rki	17	12	3	1	1
3	Oila baxt qo'rg'oni	9	6	1	1	1
Jami		34	24	5	3	2



V SINF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

atrofda bo'layotgan voqea-hodisalarga sog'lom munosabat bildira oladi;

shaxs sifatida o'zini anglaydi;

xatti-harakatlarini tahlil qila oladi;

favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni biladi;

orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

I bob. MEN FUQAROMAN

(9 soat)

Vatanga muhabbat. Vatanparvarlik qayerda va qanday namoyon bo'ladi? Vatanga muhabbatni nimalarda ko'rasiz? Vatanimizning taniqli insonlari.

Biz o'z xatti-harakatlarimiz uchun javobgarmiz. Mas'uliyat nima va uni qanday his etish mumkin? Mas'uliyatsizlik nima? Mas'uliyatning inson hayotidagi o'rni. Mahalla, inson, mas'uliyat, vijdon.

Inson huquq va majburiyatlari. Bolaning huquq va majburiyatlari. Huquq va majburiyatlarga rioya qilishning ahamiyati. O'zgalarning huquqlarini hurmat qilish.

Ona tabiatni asrash - bizning burchimiz. Nima uchun ekologik muammolar yuzaga keladi? Tabiiy resurslarni saqlashda sizning yordamingiz. Chiqindilarsiz yashil bog'lar sari. Bizning birinchi ekobog'imiz. Atrof-muhitni ifloslantirmasdan maishiy chiqindilarni yo'qotish (utilizatsiya qilish)ni o'rganish.

II bob. MEN INSONMAN

(7 soat)

Bir-birimizni tushunishni o'rganamiz. Hissiyot va hayrixohlik. Hayrixohlik odobi.

Mehribonlik qadri. Mehribonlik nima? Nima uchun boshqalarga yordam berish juda muhim? Mehribonlik ko'rsatish. Befarqlik, begonalashuv, e'tiborsizlik, qahrilik, bag'ritoshlik.

Ezgu orzular ro'yobi. G'alabalar va mag'lubiyatlarning sabablarini tahlil qilish. Tashabbus ko'rsatish va maqsadga erishish yo'llari. Xohlayman – Bajara olaman – Menga kerak.

Ishtiyiqim – mening yordamchim. Ishtiyiq. Maqsadga erishishga to'sqinlik qiladigan omillar. Maqsadni aniq qo'yish, turli ma'lumotlarni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish.

Har bir inson hurmatga loyiq. Matonat, jasorat – maqsadga eltuvchi kuch. Intilganga tole yor. Ehtiyojlar va imkoniyatlar.



III bob. MEN VA MENING DO‘STLARIM

(9 soat)

O‘zgalarga yordam berib, o‘zingda insoniylikni kashf et. Yon atrofdagilarga yordam berish zarurati. Insonlarga qanday yordam berish mumkin?

Hamkorlik – muvaffaqiyat garovi. Jamoada ishlash. Boshqalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik, jamoa bo‘lib ishlash odobi.

Jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish. Hayvonlarga nisbatan rahmshavqatli bo‘lish. Ularga g‘amxo‘rlik qilish va himoyalash. Davlatimiz tomonidan ham qarovsiz qoldirilgan hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilinadi va himoyalanaadi.

Xulq-atvor qoidalari - hayot tarzi. Xulq-atvor qoidalari va ularga amal qilish haqida. Jamoat joylarida o‘zini tutish. (Teatr, kinoteatr, jamoat transporti, dam olish maskanlari)

Sog‘lig‘imiz – boyligimiz. Sog‘lom turmush tarzi haqida. Organizmga salbiy odatlarning ta‘siri. Jismoniy mashg‘ulotlarning inson salomatligida tutgan o‘rni. Salomatlikni asrash yosh tanlamaydi.

Umumlashtiruvchi dars: Atrofimdagilarning qiziqishlarini qanchalik bilaman? Ijtimoiy so‘rov natijasida olingan ma‘lumotlarni miqdoriy va sifatli qayta ishlashni o‘rganish.

IV bob. MEN VA MENING AJDODLARIM

(9 soat)

Xotira – abadiy, qadr – muqaddas. Madaniy meros nima. Madaniy meros qanday bo‘ladi. O‘zbekiston va butun jahondagi madaniy meroslarni kim va nima uchun saqlaydi. Madaniy meros nima sababdan odamlar uchun bunchalik muhim sanaladi.

Merosimiz – faxrimiz. Tarixiy obidalarimiz, ularni asrash va saqlash zarurati. Madaniy meroslar-xalqaro tashkilotlar e‘tirofida.

Amaliy mashg‘ulot. Diqqatga sazovor joylarda o‘zini tutish madaniyati. Ziyorat qilish odobi.

Milliy an‘ana va qadriyatlarimiz. Oila. Oilani hurmat qilish. Ota-onaga hurmat, oila a‘zolari bilan yaxshi munosabatda bo‘lish. Oilaviy munosabatlar haqida.

Kitoblarda olam sirlari. Birinchi kitoblar qanday paydo bo‘lgan. Kitobning rivojlanish tarixi. Kitoblarni yaratilishi va unga sarflanadigan mehnat. Kitoblar “shifoxonasi”. (Yirtilgan kitoblarni butlash).

Umumlashtiruvchi dars: Tariximiz – boyligimiz. O‘lkamizning madaniy merosiga g‘amxo‘rlik qilishning muhimligini tushunish va madaniy merosimizga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish.



MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash/ nazorat ishi
1	Men fuqaroman	9	4	4	1
2	Men insonman	7	5	1	1
3	Men va mening do'stlarim	10	5	4	1
4	Men va mening ajdodlarim	8	4	3	1
Jami		34	18	12	4

LOYIHA



VI SINIF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

o'z oldiga maqsad qo'ya oladi, mustaqil fikrlaydi;
o'z faoliyatini tahlil qiladi, baholaydi;
o'zini-o'zi rivojlantiradi;
o'z majburiyatini bajaradi, muloqotga kirisha oladi;
hamkorlikda ishlaydi;
o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga odatlanadi;
ma'naviy-axloq me'yorlariga rioya qiladi.

I bob. MEN FUQAROMAN

(9 soat)

Men oltin qoida bo'yicha yashayman. "Axloqning oltin qoidasi" iborasining ma'nosini ochib berish. Ijobiy va salbiy shaklda: boshqalar bilan o'zingga nisbatan bo'lishini xohlaganingdek muomala qil. O'zingga nisbatan bo'lishini xohlamaganlaringni boshqalarga qilma.

Vijdon va burch bilan yashash. Vijdon va burch tushunchalari mazmunini ochib berish. Vijdonga muvofiq amal qilish, o'ziga nisbatan va boshqalar bilan halol bo'lish. Baxt – toza vijdon bilan yashashdir.

Adolat hayot haqiqati sifatida. Tenglik tushunchasini ochib berish, qanday qilib, odamlar "teng" bo'lishlari kerak? Boshqa odamlarga: oilada, sinfda, shaharda, mamlakatda teng va adolatli munosabatda bo'lish. Adolat bilan taqsimlash nimani anglatadi.

Minnatdorchilik yuragimda yashaydi. Minnatdorlik nimani anglatadi va uni qanday mos usullar bilan ifodalash mumkin. Atrof-olamdan minnatdor bo'lish. Boshqalarga o'z minnatdorligimiz va ehtiromimizni qanday ko'rsatishimiz mumkin? Kimdan minnatdor bo'lishimiz shart?

Kechirimlilik kuchlilar xislatidir. Xafagarchilik va kechirim nima? Nega xafagarchilikni saqlab yurmaslik va kechirishni o'rganish juda muhim? Kimdan va qanday kechirim so'rash kerak.

Sabr-toqat oxirigacha borishni anglatadi. Sabr-toqat nima? Nega sabrli bo'lish muhim? Sabr-toqat nimalarda namoyon bo'ladi va qanday qilib, sabr-toqatli bo'lishni o'rganish mumkin?

II bob. MEN INSONMAN

(9 soat)

Ona yurtim-oltin beshigim. Xalqimizning iftixoriga aylangan muqaddas maskanlar. Hayotimizni yaxshilashga hissa qo'shish.

Mening mahallam – mening faxrim. Mahallamni obodligida mening o'rnim. Obod maktab. Maktabim – faxrim.

Xulq-atvor qanday bo'lsa, oqibat ham shunday bo'ladi. Harakat va qahramonlik o'rtasidagi farq nimada? Noo'rin xatti-harakat va uning oqibatlari.



Bilim ol hunar tanla! Bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi. Tajriba qanday paydo bo'ladi va to'planadi. Bizning yurtimiz qanday hunarmandchilik bilan mashhur. Kasblar qanday va nima uchun paydo bo'ldi? Kasb turlari. Zamondoshlarimizning kasbiy qahramonliklari. Hunar – hunardan baxting unar.

III bob. MEN VA MENING DO'STLARIM (9 soat)

Zamonaviy texnologiyalar ezgulik xizmatida. Raqamli olam, raqamli media, texnologiyalardan foydalanishda muvozanatga erishish.

Salomatlik - ulkan boylik. Bezovtalanish, stress, xavotir, tashvishlanish, hamdard bo'lish, chidamlilik, jasorat.

Do'stlik va mehr-oqibat. Do'st va tanish inson, do'stona munosabat, do'stlikning fazilatlarini

Rostgo'ylik, halollik va texnologiyalar. Rost va yolg'on so'zlash. Rost va yolg'on so'zlashning oqibatlarini. Rostgo'ylikning qadr-qimmati.

Rost va yolg'on axborotlar. Rost va yolg'on axborotlar. Rost va yolg'on axborotlarni farqlay olish. Qalbaki axborotlarning oqibatlarini.

IV bob. OILA KICHIK VATAN (7 soat)

Qadriyatlar beshigi. Qadriyatlarining asosi oilada shakllanadi. Barcha ezgu sifatlar, fazilatlarining makoni oila ekanligi. Farzand oila ko'z gusi. O'quvchilar bilan oilaviy qadriyatlar haqida suhbat.

Oilaviy kitobxonlik. Ilm bilmagan narsalarni bilganlardan o'rganmoqlikdir.

To'g'ri ovqatlanish qoidalari. To'g'ri ovqatlanish qoidalari va tartibi haqida. Foydali va foydasiz oziq-ovqatlar.

Ekologik xavflar kelajak zavoli. Tabiiy ofatlar yuz berganda insonlarning to'g'ri harakatlanishi. Tabiiy ofatlar ro'y berganda fuqarolarning o'zini tutish odobi.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti			
		Jami soatlar	Nazariy	Amaliy	Takrorlash/nazorat ishi
1	Men fuqaroman	9	6	3	
2	Men insonman	7	4	2	1
3	Men va mening do'stlarim	10	5	4	1
4	Oila kichik vatan	8	4	3	1
Jami:		34	19	12	3



VII SINF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

o'z harakatlarini baholaydi;
bilimli bo'lish zarurligini anglaydi;
jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantiradi;
jamoa bilan hamkorlikda kreativ sifatlarini namoyon qiladi;
axborot olish, uni tahlil qilish, mediamadaniyatiga ega bo'ladi;
yon-atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga daxldor bo'ladi.

I bob. OLIY MAQSAD (6 soat)

Inson ezgulik ijodkori. Yaxshilik nur keltirar. Yaxshilik saodat kaliti. Insondan qoladigani ezgu ishlar va nom.

Ezgu maqsadlar bilan yashash. Ezgu va xayrli ishlar. Maqsad aniq bo'lsa, unga yetishish ham oson bo'lishi haqida.

Muvaffaqiyat - qat'iyat va qunt-matonatning natijasi. Istak, orzu va o'z g'alabasini aniq his qilish kishini maqsadiga olib boradi. Muvaffaqiyatning siri juda oddiy va u insondan qat'iyatlilikni talab qiladi.

Umr – umid – sinov – imkoniyat. Umid – hayotiy ne'matlarning eng foydalidir. Hayotning har lahzasi go'zal, umrning har dami g'animat. Hayotning o'zi muallim. Inson irodasi.

Tabiatni asrash – hayotni asrash. Tabiatga munosabat qog'ozda emas, yurakda bo'lishi lozim! Loyihaviy o'qitish darsi.

II bob. AXLOQ VA TARBIYA USTUNLARI (6 soat)

Inson axloqi bilan go'zal. Axloq – fazilatlarining eng yaxshisi. Xulqning eng yaxshilari. Eng yaxshi fazilatlar haqida: kulib turmoqlik, shirin so'zlamqlik, xushmuomila bo'lmoqlik haqida.

Inson odobida aks etuvchi fe'l-atvor. Rostgo'ylik, va'daga vafo qilish, kechirimlilik, adolatsizlik haqida. Boshqalar senga qanday munosabatda bo'lishlarini istasang, sen ham ularga shunday munosabatda bo'!

Insonlarni birlashtiruvchi umuminsoniy xislatlar. Baxtli bo'lmoq, jamoaviylik, yaxshilik, iroda, imkoniyatlardan foydalanish, o'zgarar mulkini hurmat qilish, o'zgarar tajribasini o'rganish. Odamlarga yaxshilik qilib, ezgulik ulashish zarur. Axloq-insonning ham, oilaning ham, davlatning ham, jamiyatning ham gultojisidir (1 soat).

Baxtiyor hayotning ustunlari. Axloqning uch asosi. Hissiy, aqliy va xulqiy ustun haqida. To'g'ri qarorlar esa baxtiyor hayotimizning poydevoridir.

Hammasi o'z qo'limizda. Vatanga xizmat qilish oila va ota-onaga xizmat. O'zingga ravo ko'rmaganni boshqaga ham ravo ko'rma.



III bob. HUSHYORLIK VA OGOHLIK

(6 soat)

Inson umri. Inson umrining zavoli. OITS, giyohvandlik, bangilik, toksikomaniya.

Ogohlik. Hushyorlik va ogohlik. Ogohlik uyimizda, ota-ona tarbiyasidan boshlanadi. Insonning ogohlighi bo'lajak "ta'sirlarni" oldini oladi.

Ko'zga ko'rinmas xatarlar. Internet – bu virtual olam. Hozirgi vaqtda aloqa va axborot almashish vositalarining kuchayib, yagona tizimga aylanib borayotgani.

Men qanday odamman? Insonning asosiy yutuq va kamchiliklari. Inson xulq-atvorini tahlil qiladigan vaziyatlar va topshiriqlar.

IV bob. MUOMALA VA MULOQOT ASOSLARI

(5 soat)

Muomala uchun zarur odoblar. Muomala odobi. Muloyimlik, to'g'riso'zlik, samimiylik, tinglash odobi, suhbatdoshni hurmat qilish odobi. Insonlarga muomala qilishda shirin so'z bo'lish ham asosiy ahamiyatga egadir. Shirin so'z vositasida inson qalbiga yo'l topiladi.

Kirishimlilik – muvaffaqiyat kaliti. Kirishimli insonning eng katta yutug'i uning atrofidagi insonlar bilan iliq munosabatga kirisha olishidir. Kirishimli bo'lmasdan turib hayotda muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Yangi jamoaning tartib-qoidalari.

Samarali muloqot sirlari. So'zlashganda o'ylab, chiroyli so'zlar bilan gapirish ezgulik baxt yo'lini ochadi. Muloqot madaniyatiga, odobiga amal qilish kishini yuksaklik sari yetaklaydi. Samarali muloqot qilishning ahamiyati.

Farzand oila ko'zgusi. Sog'lom bola-sog'lom oila mevasi. Farzandlarning har tomonlama sog'lom va barkamol bo'lishiga erishish yo'llari, aqliy va jismoniy mehnatga o'rgatish. Oila a'zolarining bir-biriga g'amxo'rliqi.

Avval tinglashni o'rganing. Yaxshi tinglash xushmuomalalik va xulq-atvorni aks ettiradi. Boshqalarni tinglash ham bu san'at hisoblanadi. Jamoaviy mashq: "Buzuq telefon o'yini".

Harakat qilmagan baxtiga yeta olmas. Harakatsizlikda baxt yo'q. Munosib hayotning kaliti – harakat. Yaxshi hayot harakat bilan qadrlil. Inson harakatdan to'xtasa, demak, u maqsadga erishishdan to'xtaydi, bu esa uning baxtsizligidan dalolatdir.

V bob. BIRLASHGAN O'ZAR

(8 soat)

Yaxshilik yo'lida hamkorlik. Inson va jamiyat hayotida hamkorlik. Mening sinfdoshlarim va ularning oldidagi hamkorlikdagi harakatlar. Maktabim mavqeining rivojida mening o'rnim. Hamkorlikda ishlaganda ish



tez va samarali bitadi, xatoliklar oson aniqlanadi va ko'proq yangilik qilishga imkon tug'iladi.

Do'stlik. Do'stlik fazilatlar gavhari. Do'st bilan obod uying. Do'stlik hayotimizni mazmunli bo'lishida, har qanday qiyin masalaning yechimini topishda insonga yordam beradi. Do'stsiz kishi – qo'lsiz kishi.

Insoniylik xalqimizning eng buyuk fazilati. Mehr-oqibat, insoniylik. Inson hayotida insoniylik fazilatlar. Volontyorlik faoliyati to'g'risida.

Bag'rikenglik, tinchlik va totuvlik sari muhim qadam. Bag'rikenglik taraqqiyot omili. Bag'rikenglik turli adovatlarga qarshi o'ziga xos qalqondir. O'zbekiston xalqi bag'rikeng xalq.

Daxldorlik. Daxldorlik tushunchasi. "Boshqalar menga nima qildi emas, men boshqalar uchun nima qildim. Illatlarga qarshi immunitet hosil qilish. Ezgu va xayrli ishlar haqida hikoya. Boshqalarga bemimmat yordam berish haqida.

Mahallamiz farovonligi – bizning farovonligimiz. Mahalla, yurt osoyishtaligiga barchamiz mas'ulmiz. Mahalla va undagi har bir xonadon tinch ekan — yurt tinch bo'ladi. Yurt osoyishtaligi yo'lida jipslashaylik.

Umumlashtiruvchi dars.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti			
		Soat	Nazariy	Amaliy	Takrorlash/nazorat ishi
1	Oliy maqsad	6	5	1	
2	Axloq va tarbiya ustunlari	6	5	1	
3	Hushyorlik va ogohlik	6	4	1	1
4	Muomala va muloqot asoslari	8	6	2	
5	Birlashgan o'zar	8	6	1	1
Jami:		34	26	6	2



VIII SINF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

kelajak maqsadlarini amalga oshirish uchun to'g'ri qaror qabul qiladi;
o'z faoliyati davomida kommunikativlik, faollik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik ko'rsatadi;
axborot olish, uni tahlil qilish, mediamadaniyatiga ega bo'ladi;
jamoat ishlarida faollikni namoyon qiladi;
sog'lom turmush tarziga, jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor normalariga, umuminsoniy va milliy madaniyatga rioya qiladi;

I bob. TINCH VA XOTIRJAM YASHASH BAXTI

(4 soat)

Iftixorimsan – jannatmakon O'zbekiston! Tinchlik eng qimmat boylik. Tinchlik uchun har birimiz mas'ulmiz! Tinchlik uchun kurashmoq kerak. Baxtiyor va hotirjam hayot.

Millatlararo hamjihatlik. Bu aziz Vatan – barchamizniki. Xalqimizga xos bo'lgan do'stlik, birodarlik fazilatlarini. Millatlararo hamjihatlikka raxna soluvchi illatlar.

Har bir farzand vatan himoyachisi. Vatan oldidagi burchimiz.

II bob. O'Z-O'ZINI ANGLASH

(7 soat)

Hayotda o'z istaklarimizni anglash. Hayotda oldiga maqsad qo'yishni o'rganish. Nima uchun yashayotgani, qilishi lozim bo'lgan harakat va maqsadlarni aniqlash.

Qat'iy fe'l-atvorning muhimligi. Qat'iy fe'l-atvorning tarkibi va ularning ahamiyati. Fe'l-atvorda irodaning o'рни.

Qiyin vaziyatda hissiyotlarni boshqarish. Hissiyotlarni anglash, ularni nazorat qilish usullari.

Hayot betakror ne'mat. Ne'mat nima? Umr, hayot ne'matlarining qadri va ulardan foydalanish.

III bob. O'ZGARISH, MASHAQQATLARNI YENGISH

(6 soat)

Tushkunlik va bezovtalikni boshqarish. Tushkunlik va bezovtalikning sabablari. Insonning tushgunligiga sabab bo'luvchi omillar va ularning sabablari. Tushkunlikning kelib chiqish omillarini anglash. Tushkun holatdan chiqib ketish va o'z-o'ziga yordam berish yo'llari.

Mashaqqatlarni yengib o'tish. Qiyin vaziyatlarda o'z-o'zini himoya qilish va maqsadli rejalarini amalga oshirish.

Tanqid va tanqidiy fikrlashning muhimligi. Tanqidning foydali tomonlari. Tanqidni qabul qilishning ahamiyati. Tanqidiy fikrlash qobiliyatining tarkibi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar.



Jamoa bo'lib ishlash orqali bir-biridagi tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikamasini qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishga oid vazifa.

IV bob. TARAQQIYOT VA BIZNES – ILM-FAN VA YARATUVCHANLIK MEVASI (8 soat)

Fan–texnika taraqqiyoti va inson ma'naviyati. Ilmiy-texnika asri. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Axborot olish, ega bo'lish va unga bo'lgan mas'uliyat.

Ilm va zakovat. Ilm va zakovat tushunchasi. Barcha orzularning ro'yobga chiqishida inson irodasi hamda ustozlar o'giti.

Til bilgan – dunyo ko'radi. Til o'rganish – davr talabi. Til bilgan el biladi. Abu Nasr Farobiyning jahon tillarini bilganligi haqidagi rivoyatlar.

Vaqt – bebaho ne'mat. Vaqt qadrlash – olimlik belgisi. Vaqt nima? Vaqt sotib olib bo'lmasligi. Imkonsizlikni yengish va uning zamonaviy yechimlari.

V bob. OILA VA SALOMATLIK (9 soat)

Go'zal tarbiya tamoyillari. Aqlli farzand kim? Boladagi yaxshi odat to'g'ri tarbiya natijasidir. Eng birinchi yaxshilikni onangga qil.

Tabiat va inson. Tabiatga munosabat madaniyati. Xalqimizning ona tabiatga bo'lgan mehr-muhabbati.

Tejamkorlik yaxshi fazilat. Tejamkorlik – koni boylik. Gaz, elektr energiyasi va ichimlik suvi milliy boyligimiz. Ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik. Iqtisodiy savodxonlik va iqtisodiy madaniyatlilik darajasi. Ro'zg'or tutish mahorati.

Xotira – buyuk qadriyat. Yurtimizda o'tganlarni xotirlash – ularni eslash maqsadida olib borilayotgan xayrli ishlar. O'tganlarni xotirlash insoniy fazilat. O'quvchilar berilgan vazifa asosida urush yillaridagi xotiralar haqida, urush qahramonlari yoki ularning yaqinlari bilan suhbat qilib, tayyorlagan video tasvir taqdimotini tamosha qilishadi.

MAVZUIY REJALASHTIRISH

№	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash
1	Tinch va xotirjam yashash baxti	4	3	1	
2	O'z-o'zini anglash	8	4	3	1
3	O'zgarish, mashaqqatlarni yengish	6	3	2	1
4	Taraqqiyot va biznes – ilm-fan va yaratuvchanlik mevasi	8	4	3	1
5	Oila va salomatlik	8	4	3	1
Jami		34	18	12	4



IX SINIF

O'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar:

to'g'ri qaror qabul qiladi;
liderlik qobiliyatini namoyon qiladi;
hislarini anglaydi va nazorat qila oladi;
faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi;
pul topish ko'nikmalariga ega bo'ladi;
kreativ sifatlarini namoyon qiladi;

I bob. YASHASHDAN MAQSAD - MUNOSIB HAYOT (8 soat)

Ulug'imsan - Vatanim. Hayot muntazam rivojlanishdan iborat. Yurtimning taraqqiyoti, gullab-yashnashi – menga daxldor. Tinch-osooyishta elda yashash baxti.

Yashamoq – o'zidan yaxshi nom qoldirmoq. Yaxshi hayot sari intilib. Yaxshi inson bo'lish va yaxshilik qilishning ahamiyati. Odamlarga mehribonlik va xayrixohlik qilish.

Yuksalish o'zingni anglashdan boshlanadi. XXI asrda insonlar mavaffaqiyatga erishish uchun egallashi kerak bo'lgan ko'nikmalar. Hayotning mazmuni rivojlanishdan iborat ekanligi haqida suhbat olib borish.

Faol o'quvchidan – faol fuqaroligacha. Islohotlar ishtirokchisiman. Islohotlarda men tomoshabin emas, ishtirokchiman. Mas'uliyatli va vijdonli, diyonatli inson.

Kelajakka sarmoya – vaqtni mazmunli o'tkazish. Hobbi – shaxsiy qiziqishning taqdirimizga ta'siri. Taym-menejment. Vaqtni to'g'ri taqsimlay bilishning ahamiyati. "Raqamli qora tuynuk" – devayslardan samarali foydalanish.

Baxt oilada. Oilada hayot. Yaqinlarni qadrlash. Kattalarni hurmat qilish va oila a'zolariga xizmat. Ota-onaga va ustozga hurmat. Mustaqil hayot sari ilk qadam. Bobo-buvilarimizning hayotimizdagi o'rni.

Baxtiyorlik – umrning bosh maqsadi. Foydali odatlar. Mazmunli hayot. Hayot qoidalari. Mening baxtiyor kunim. Taassurotni bayon qilish.

II bob. ILM-MA'RIFAT. INNOVATSIYA (8 soat)

Buyuklarni aziz qilgan bilim. Insoniyat hayotini o'zgartirgan taniqli shaxslar galereyasi. Daholarni nima voyaga yetkazadi? Algoritm dunyoni qanday o'zgartirdi? Algoritmning ilm-fan va taraqqiyot rivojida o'rni. Ajdodlar merosi, ularga hurmat.

Tasavvur – kelajakka yetaklovchi vosita. Kitob o'qishning afzalliklari. Tasavvur kuchlimi yoki bilim? Miyani aldash mumkin. Ilm va ixtirolarning ahamiyati. Kitob o'qishning dunyoqarashga ta'siri. Mening



sevimli qahramonim. O'quvchilar o'zlari o'qigan kitob va uning qahramonidan olgan ibrat haqida so'zlab beradilar.

Bilimga asoslangan jamiyat. Muvaffaqiyat qozonish. Fan-texnika taraqqiyoti va biz. Ilm-fan olam tilsimlari kaliti. Fan-texnika taraqqiyoti hayot farovonligi garovi.

Innovatsiya va ilg'or fikrlash – taraqqiyot g'ildiragi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari va ularning ahamiyati. XXI asr – bilimga asoslangan davrda yashash sirlari.

Tanqidiy fikrlash. Tanqidiy tafakkur. Tahlil qilish va vaziyatni baholash. Tanqidiy tafakkurga oid mulohazalar.

Liderlikka xos xususiyatlar. Jamoani boshqarish ko'nikmalari. Boshqaruv mahorati. "Qulay hudud"dan tashqarida: ilg'or fikrlash sirlari.

III bob. ORZU, MAQSAD VA MUVAFFAQIYAT (9 soat)

Bizning kuchli va kuchsiz tomonlarimiz. Qo'rquv va uni yengish. O'quvchilar tomonidan o'z individual xususiyatlarini, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini anglash.

Muvaffaqiyatga qanday erishiladi? Maqsad qo'yishning ahamiyati. Uni amalga oshirish yo'llari va omillari. Rad etilish – olg'a borish uchun sabab. Jamoaviylik.

Muvaffaqiyat va qimmatli tajriba - muvaffaqiyatsizlikning mevasi. Muvaffaqiyatli inson bo'lish omillari. Muvaffaqiyatga erishishda til bilish va boshqa ko'nikmalar. Maqsadni to'g'ri tanlash – muvaffaqiyatning negizi.

O'ziga ishonch – mo'jizakor kuch. O'ziga ishonish va ishonch bilan harakatlanishning ahamiyati. O'ziga ishonch uchun zarur ko'nikmalar.

Tinglash, muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar. Tinglash madaniyati va to'g'ri muloqot qilish ko'nikmalari. Hayotimizda kerak bo'ladigan ijtimoiy ko'nikmalar haqida.

Kelajak kasblari. Bilimga asoslangan jamiyatda kasbiy yuksalish sirlari. Kasbiy rejani shakllantirish. Mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish.

IV bob. PUL, BIZNES VA BOYLIK (8 soat)

Biznes mezonlari. "Men tadbirkor bo'laman" – tadbirkorlik bilan shug'ullanganda amal qilish zarur bo'lgan umuminsoniy qoidalar va ma'naviy mezonlar.

Biznesni boshlash uchun zamonaviy g'oyalar. Bugungi biznesda qanday sohalar jadal rivojlanmoqda?

Frilanserlik – XXI asrning kelajagi. Pul topishning zamonaviy va sodda yo'llari: blogerlik va onlayn marketing va boshqa zamonaviy tendensiyalar.

Insonni qashshoq qiluvchi omillar. Tadbirkor va kambag'al, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz inson o'rtasidagi farqlar. Boylik nimaga



xizmat qiladi? Boylikdan maqsadli foydalanish. Boylik qachon o'zini oqlaydi?

Boylikdan foydalanish mezonlari. Haqiqiy boylik nima? Saxovatpesha va ma'rifatparvar boy insonlar haqida.

Umumlashtiruvchi dars "Munosib hayot formulasi".

MAVZUIY REJALASHTIRISH

T/r	Bo'lim va boblar	Soatlar taqsimoti			
		Soat	Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Takrorlash/nazorat ishi
1	Yashashdan maqsad-munosib hayot	9	7	2	
2	Ilm-ma'rifat. Innovatsiya	9	6	3	
3	Orzu, maqsad va muvaffaqiyat	8	6	1	1
4	Pul, biznes va boylik	8	5	2	1
Jami		34	24	8	2



X SINF (34 soat)

I bob. YOSHLAR VA JAMIYAT

Jamiyat farovonligi. Yuksak madaniyatli va tartib-intizomli kishilarning fazilatlarini. Insonning farovonligi va xotirjamligini ta'minlaydigan ezgu amallar (1 soat)

Jamiyat rivojida yoshlarning o'рни. Jamiyat taraqqiyotida mening o'rnim. Yoshlar manfaatlari va huquqlarining amalga oshirilishida burch va mas'uliyatlarning uyg'unligi. Menda qaysi fazilatlar mavjud? (1 soat)

Insonning jamiyatdagi o'рни. Insondagi imkoniyatlar. Insonning g'ururi, iftixori, sha'ni va sharafi. Odamlarning eng yaxshisi. Ezgu maqsad va unga yetishish yo'llari. (1 soat)

Trening mashg'uloti. Insondagi o'n fazilat va o'n noqislik. (1 soat)

Do'stlik va bag'rikenglik. Millatlararo do'stlik. Do'stlikning qadri. Do'stlikning boshlanishi va chegarasi. Do'stlik odobi va mas'uliyati. (1 soat)

Shaxsning shakllanishida diniy tarbiya va tasavvurlar. Teologik va materialistik qarashlarning jamiyat rivojiga ta'siri. (1 soat)

Dunyo dinlari g'oyalarida insonparvarlik. Jahon dinlarida Ezgulik va Yovuzlikning mohiyati. Odamiylik fazilatlarining ulug'lanishi. Muqaddas kitoblarda mustahkam ezgu e'tiqod, rostgo'ylik, halollik, vatanparvarlik, tejamkorlik, shukronalik, kechirimlilik, qanoat, sadoqat, o'zganing dilini og'ritmaslik kabi insoniy go'zal xulqning targ'iboti. (1 soat)

Jahon dinlarida ilm olishga targ'ib qilinishi. Ilm-hunarning afzalligi. "Ilm ibodatdan afzal" (hadisi sharif) (1 soat)

II bob. MUNOSIB UMR KECHIRISH BAXTI

Fuqarolik mas'uliyati va daxldorlik. Yuksak axloqiy fazilatlar – atrof-muhitga e'tiborli bo'lish. Jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlik. Jamoat ishlarida faol ishtirok etish. Faol fuqarolik. (1 soat)

Trening mashg'uloti. Fuqarolik burchim va majburiyatim. (1 soat)

Vatan oldidagi burch va mas'uliyat. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik osuda va farovon hayotning asosi. Burchni anglash. Kim lider bo'ladi? (1 soat)

Halollik. Milliy qadriyatlarimizda halollik haqida. Halollik – xotirjamlik asosi. Halollik va adolat bilan hayot kechirish – oliyjanob fazilat. (1 soat)

Xalq boyligi. Moddiy va nomoddiy ne'matlar. Jamoat mulki. Tejamkorlik jamiyat boyligi. Nimani, qanday tejash kerak? (1 soat)

Korrupsiyasiz – jamiyat quramiz. O'zbek adabiyotida (Masalan, Alisher Navoiy, Sa'di Sheroziy va boshqalar asarlarida) odil hukmdor va sodiq fuqaro g'oyalarining yoritilishi. Insonlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning milliy qadriyatlar asosida shakllanishi. (1 soat)



Trening mashg'uloti. "Halollik vaksinasi"ning mazmun-mohiyati. Birovning haqqi. Lafz (o'z va'dasida turish). So'zida to'g'ri, ishida halol bo'lish fazilatlari. (1 soat)

III bob. YUKSAK IRODA VA O'ZLIKNI ANGLASH SAODATI

O'zlikni anglash. Inson ruhiy –ma'naviy olamining kamoloti. (1 soat)

Komil inson xislatlari. Komillikning yuksalish zinalari/(1 soat)

Ona tilimiz – o'zligimiz bayoni". Ona tilini puxta bilish va kamida ikkita xorij tilini bilish – davr talabi.Xorijiy til o'zbek madaniyatini olamga yoyish omili. (1 soat)

Oila ma'naviyati. Oila tarbiyasi – ma'naviy kamolot poydevori. Ota-ona va farzand munosabatlari. Oilada mehr-muruvvat tuyg'usining shakllanishi. Mustahkam oila ma'naviyati. (1 soat)

Mahalla obodligi ko'ngildan boshlanadi. Obod mahallaning bilimli yoshlari. Mahallada shaxs ma'naviyati. (1 soat)

Sog'lig'ing o'z qo'lingda. Sog'liq uchun zararli illatlar. Sog'liqni saqlash mas'uliyati. Tibbiy madaniyat va gigiena. (1 soat)

Inson ma'naviyatida etika va nafosatning o'rni. Etiketning oltin qoidalari. His tuyg'ularini boshqarish. Rasmiy va norasmiy uchrashuvlarda o'zini tutish, muloqot madaniyati. Nafosatning ma'naviy mezonlari. Notiqlik san'ati. Etiket va nafosatning inson ma'naviyatiga ta'siri. (1 soat)

IV bob. AXBOROTLATGAN DAVRNING MA'NAVIY ASOSLARI

Axborot asri tahlikalari. Jahon axborot tizimidagi tahdidlarga qarshi kurash. Global tarmoqdagi g'oyaviy xurujlarning oldini olish. (1 soat)

Befarqlik va uning oqibatlari. E'tibor va shaxsiy munosabat. Jamiyat rivojiga salbiy ta'sir etadigan omillar. Befarqlik. "Menga nima?", "Ishing bo'lmasin" kabi illatlarning oqibatlari. (1 soat)

Sobit iroda, mustahkam ishonch – kuchli ma'naviyat kafolati. Mafkuraviy immunitet, mustahkam iroda va sog'lom dunyoqarash. Yomon odatlardan xalos bo'lish zarurati. Ahillik, xayrixohlik va havas qilish fazilatlari. (1 soat)

Ma'naviy xavfsizlik. Ma'naviy tahdidlar. Insonning ma'naviy – tahdidlarga qarshi kurashi. Mustahkam e'tiqod va sobit iroda. O'zbekiston – tinchlik va ma'rifiy hamkorlik tarafdori. (1 soat)

Tinchlik uchun barcha mas'ul. Ekstremizm va terrorizmning jamiyat hayotiga tahdidi. (1 soat)

Jahon axborot tarmog'idagi tahdidlar! Missionerlik va e'tiqod ovchilari. "Ommaviy madaniyat", Global tarmoq qalloblariga munosabat. (1 soat)



Kiber makon va biz. “Flesh mob va selfi”ning jamiyat va yoshlar tarbiyasiga ta’siri. Internetga qaramlik belgilari. Virtual muloqot vositalarining salbiy jihatlari. (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat)

V bob. IMKONIYATLAR DAVRINING TASHABBUSKOR YOSHLARI

Yoshlar uchun yaratilgan umummilliy imkoniyatlar. Ruhiiy va moddiy olam. Xalqimizning asrlar davomidagi orzu maqsadlari. Islohotlarni amalga oshirishda mening o’rnim. (1 soat)

Innovatsiyalar asrida mos loyihalar. Ishbilarmon yoshlar – kelajak ustunlari. Muvaffaqiyatga erishishning yangi texnologiyalari (1 soat)

Trening mashg’uloti. Kelajakka sarmoya qanday qo’yiladi? (1 soat)

Yakuniy dars

JOYIMKA



XI SINF (34 soat)

I bob. SHAXS – JAMIYAT - DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI

Hozirgi davrda davlat va din munosabatlarida inson omilining o‘rni. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz, ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. (1 soat)

Shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar va din. Dinning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalari. Shaxs dunyoqarashini shakllanishida, uning ijtimoiy mansubligini belgilashda, yangi ijtimoiy muhitga moslashishda, ota-onalar, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, qarindosh-urug‘lar va boshqa dinga e‘tiqod qiluvchilarga nisbatan bo‘ladigan munosabatlarni tartibga solishda, dinning vazifalari. (1 soat)

Tariqatchilik. Islom – tinchlik, poklik, ma‘naviy yuksalish dini. Tasavvuf ta‘limoti. Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk tasavvufshunos allomalar. Tasavvuf va soxta tariqatchilik o‘rtasidagi farq. Adashgan so‘fiy guruhlarga xos xususiyatlar (1 soat)

Trening mashg‘uloti. Tasavvufning asl mohiyatini buzib talqin qilish oqibatlari. Bunday faoliyatning islom dini ta‘limotiga salbiy ta‘siri (1 soat)

Din va dunyoviy ta‘limotlarning uyg‘unlashuvi. Din va madaniyat. Dinning madaniy hayotdagi o‘rni. Islom sivilizatsiya markazlarining tashkil etilishi. Madaniy qadriyatlarni saqlash va ko‘paytirish, ilmiy-ma‘naviy merosni nasldan naslga qoldirish kabi vazifalarni amalga oshirishda dinning ta‘siri. (1 soat)

Trening mashg‘uloti. Dinning fan-texnika rivojiga ta‘siri. (1 soat)

II bob. ZAMONAVIY AXBOROT TARMOQLARI VA MA‘RIFIY RIVOJLANISH

Zamonaviy axborot tarmoqlari va din omili. Din va kinematografiya. Din va badiiy adabiyot. Virtual messenjerlar va ulardan turli ekstremistik oqimlarning foydalanishi. O‘zbekistonda axborot xurujlarining oldini olish bo‘yicha harakatlar. (1 soat)

Trening mashg‘uloti. Mafkuraviy immunitet, milliy va umuminsoniy qadriyat, axloq-odob, shuningdek «ommaviy madaniyat»ning inson tafakkuriga va ma‘naviyatiga ta‘siri. (1 soat)

O‘zbekistonning xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashdagi o‘rni. O‘zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi milliy strategiyasi. Afg‘oniston muammosini hal etish bo‘yicha O‘zbekistonning tashabbusi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda barqarorlik ta‘minlanishidagi o‘rni. (1 soat)



Trening mashg'uloti. Global xavfsizlikni ta'minlashning muhim sharti. Mintaqaviy mojarolar O'zbekistonning xavfsizligiga qanday tahdid solishi mumkin? (1 soat)

Missionerlik va prozelitizmning yoshlar ongi va kelajagiga ta'siri. Xalqaro missionerlik uyushmalari. Missionerlik geosiyosiy o'yinlar quroli sifatida. Missionerlik va prozelitizmning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka salbiy ta'siri. (1 soat)

Trening mashg'uloti. Bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy keskinliklar, qurolli mojarolarning aksariyati 10-40-parallel ichidagi mamlakatlarda ro'y bermoqda. Bularning sababi nimada deb o'ylaysiz? (1 soat)

Yoshlar, diniy bag'rikenglik, ma'naviyat uyg'unligi. Prezidentimizning BMTning 72 va 75 sessiyalarida yoshlar, diniy bag'rikenglik, ma'naviyat uyg'unligi masalalari borasida olg'a surilgan ilg'or fikrlari. (1 soat)

Diniy bag'rikenglik madaniyati va konfessiyalararo muloqot. Diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish zarurati. O'zbekistondagi ommaviy axborot vositalarida diniy bag'rikenglik madaniyatining targ'ib qilinishi. Diniy tashkilotlarning nashrlari va OAVdagi chiqishlari. (1 soat)

Trening mashg'uloti. «Keng fe'l, ketmas davlat bersin» degan tilakni qanday tushunasiz? «Keng fe'llik» bilan «bag'rikenglik» tushunchalarining o'rtasida qanday bog'liqlik bor? (1 soat)

Nazorat ishi (1 soat)

III bob. MUNOSIB YASHASH BAXTI

Insonni inson darajasiga ko'taruvchi xislatlar. Azaldan xalqimizga xos bo'lgan insoniy fazilatlar. (1 soat)

Obod yurt doim farovondir. Tozalik dillarni ravshan qilib, g'uborlarni ketkazadi. Yoshlar orasida o'zaro mehr-oqibat, hamjihatlik, beg'araz yordam, mehr-muruvvat kabi ezgu xislatlarni tarbiyalash. (1 soat)

Trening mashg'uloti. Yurtni obod qilaman degan kishining qalbi obod bo'ladi. (1 soat)

Milliy an'ana va qadriyatlar – millat ko'zgusi. Milliy an'analarning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rne. Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish. (1 soat)

Munosib ota-ona, odobli farzand – baxtli oila. Oila farovonligi mamlakat taraqqiyotining asosi. Oila jamiyat poydevori. (1 soat)

Amaliy mashg'ulot. Oilaviy an'analar va umrboqiy qadriyatlar. (1 soat)

Oila oldidagi majburiyatlarni qanday amalga oshira olaman? Insonda foydali kasb-hunar o'rganish, tadbirkorlik madaniyatining yuksalishida oilaning o'rne. Oilaviy an'analar (oilaviy tadbirkorlik, kasb-hunar), mening oilam oldidagi mas'uliyat va burchlarim. (1 soat)



Trening mashg'uloti. Saodatmand oila. Oilada sog'lom muhitni yarata olish ko'nikmalariga ega bo'lish, to'g'ri qaror qabul qilish saboqlari. (1 soat)

Muloqot va o'zaro munosabatlarda tarbiyaning o'rnini. Tanishish va munosabat o'rnatish qoidalari. Muomala – ko'zgu (1 soat)

Trening mashg'uloti. So'z haqiqatning soyasi va parchasidir. (1 soat)

Ma'naviy meros qudrati. Xalq og'zaki ijodi, ajdodlarimizning boy merosida farzand tarbiyasi. (1 soat)

“Eng, eng va yana eng” (Tafakkur mashqi) (1 soat)

Yaxshilikka intilish. Har bir ishdan yaxshilik qidir. Yaxshi amal – yaxshi niyatga bog'liq. Soddil bo'l, fikringni pok saqla. (1 soat)

Trening mashg'uloti. Hayot haqiqati – tarbiya, tarbiya va yana tarbiya (Tafakkur mashqi). (1 soat)

IV bob. INNOVATSION FIKRLASH – YANGI YUTUQLAR KALITI

Sog'lom fikrlashdan yangi g'oyalari sari odimlaymiz. Zamonaviy bilimlar uyg'unlashuvi va innovatsion faoliyat. (1 soat)

Trening mashg'uloti. Kelajakka yo'l. Katta hayot ostonasida (bo'sag'asida). Baxtli va mazmunli yashash o'z qo'lingda (1 soat)

Ta'lim – tarbiya – innovatsiya. Ma'rifat – bilim va ezgulik yo'li. Bilimli avlod – buyuk kelajak kafolati. Ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. (1 soat)

Yakunlovchi dars (1 soat)